

OSHKOR ETILMAGAN AXBOROT O'ZI NIMA?

*NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI YURIDIK FAKULTETI
YURISPRUDENSIYA YO'NALISHI TALABALARI
MUMUHAMMADIYEV BAHROMJON QODIRJON O'G'LΙ
MUTALOV DILSHODJON QODIRJON O'G'LΙ*

Annotatsiya: Ushbu maqoladan men mamlakatimiz qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan fuqarolarimizning mulka bog'liq shaxsiy nomulkiy huquqlari jumlasiga kiruvchi, intellektual multk huquqining ajralmas va ijtimoiy hayotda juda ham muhim o'rinn egallaydigan oshkor etilmagan axborot tushunchasi, mohiyati, uni qonunchiligidan himoya qilinishi uchun talab etiladigan shartlar, osjkor etilmagan axborotdan foydalanish, tasarruf etish shu bilan birga oshkor etilmagan axborotn olish tartibini buzishga qonunchiligidan belgilangan javaobgarlik va bsohqa muhim jihatlarini yoritib beraman.

Kalit so'zlar: tijorat siri, xizmat siri, litsensiya, litsenziat, litsenziar, shaxsiy nomulkiy huquq, huquq muddati, javobgarlik, shartnoma, axborot. fuqarolik kodeksi, qonunlar.

Аннотация: В данной статье я рассмотрю понятие нераскрытоей информации, входящей в состав личных неимущественных прав наших граждан, охраняемых законодательством нашей страны, права интеллектуальной собственности занимают очень важное место в общественной жизни. , и что требуется для ее защиты в условиях нашего законодательства, использования и распоряжения нераскрытоей информацией, заодно разъясню установленную нашим законодательством ответственность за нарушение порядка получения нераскрытоей информации и другие важные аспекты.

Ключевые слова: коммерческая тайна, служебная тайна, лицензия, лицензиат, лицензиар, право личной собственности, срок права, ответственность, договор, информация. гражданский кодекс, законы.

Abstract: In this article, I will consider the concept of undisclosed information, which is part of the personal non-property rights of our citizens, protected by the legislation of our country, intellectual property rights occupy a very important place in public life. and what is required to protect it in the conditions of our legislation, the use and disposal of undisclosed information, at the same time I will explain the responsibility established by our legislation for violating the procedure for obtaining undisclosed information and other important aspects.

Keywords: trade secret, official secret, license, licensee, licensor, personal property right, term of right, liability, contract, information. the Civil Code, the laws.

Kirish: Har qanday jamiyatning rivojlanishi va taraqiy etishi olimlar va boshqa izlanuvchan insonlarning ijodkorona aqliy mehnatlari natijasida yaratgan texnika texnologiya, kashfiyot va topilmalariga bevosita bog'liq hisoblanadi. Qonunlar esa ularni doimo harakatda bo'lishlari izlanishda davom etishlarini rag'batlantrish maqsadida ushbu intelektual mulklarni qatiy himoya qiladi va bunday nomulkiy ne'matlarni o'z egalariga moddiy manffat olib kelishiga zamin yaratib beradi. Aks holda bunday shaxslar yangiliklar yaratiahdan to'xtab qolishlari va buning natijasida sa mamlakat o'sishdan to'xtashi turgan gap. Shu asnoda uchinchi shaxslarga oshkor etilmagan axborotni himoya qilish ham ijtimoiy muhim sananladi chunki har qanday ijtimoiy hayot sohasi borki uning o'ziga yarasha sir-asrорlari mavjud, bunday sirlar ayniqsa fuqarolar va boshqa tadbirkorlik subyektlari faoliyatida beqiyosdir.

Asosiy qism: Biz oshkor etilmagan axborortning huquqiy jihatlarini yortishdan oldin oshkor etilmagan axborot tushunchasiga to'xtalib o'tsak, oshkor etilmagan axborot deganda- uchinchi shaxslarga noma'lum bo'lgan, maxfiy,sir bo'lib xisoblanuchi ma'lumot tushuniladi. Oshkor etilmagan axborot o'z ishida bir necha turlarga bo'linadi. Fuqarolik kodeksining 98-moddasiga ko'ra ular ikkita tijoar va xizmat sirlariga bo'linadi. Xizmat siri – bu oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manffatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan,texnika, ishlab chiqarish va boshqaruvga oid malumotlar hisoblanadi. Tijorat siri esa – bu ishlab chiqarish, texnologiya axbororti, boshqaruv, moliyalashtirish, rejalahtriish, muayyan faoliyat jarayoni ketma ketligi, va boshqa faoliyatga bog'liq bo'lgan hamda e'lon bo'lishi yoki oshkor bo'lib qolishi bunday ma'lumot egasi hisoblangan shaxs yoki korxona manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumot hisoblanadi. Har qanday oshkor etilmagan axborot qonunchilik normalari bilan hioya qilinishi uchun ba'zi talablarga javob berishilozim. Masalan, avvalo bu axborot uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy qiymatga ega bo'lishi shart, undan tashqari bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarda olish, tanishib chiqish, tarqatish uchun qonuniy asos mavjud bo'lmasligi lozim. Shu builan birga bunday axborot egasi uning maxfiyligini salashga doir barcha chora tadbirlarni ko'rgan bo'lishi kerak. Ammo har qanday biror shaxs yoki korxonaga va uning faoliyatiga tegishli ma'lumotlar ham oshkor etilmaydigan axborot hisoblanmaydi va bunday ma'umotlarni olganlik, tarqatganlik, foydalanganblik javobgarlik keltirib chiqarmaydi bunday malumotlar sirasiga kelishuvl;ar, shartnomalar tuzganlik fakti va ular to'g'risdigai ma'lumotlar, statistic ma'lumotlar, davllat idoralalarida doiraviy taqdime tib boriladigan xisobotlar yoxud jismoniy yoki yuridik shaxsning qonun normalariga zid harakat qilganlik yoki faoliyat yuritgaslik fakti kabilar huquqiy rejimga ega bo'la olmaydi.

OShkor etilmagan axboror=tga bo'lgan huquqning amal qilish middat boshqa intelektual mulk obyektlarinikidan farqli o'laroq chegaralanmagan bunday ma'lumotlar yuqorida sanab o'tga uchta shartdan birir yo'qolganda o'z-o'zidan

intelektual mulk huquqi bilan muhofaza qilinuvchi obyektlar qatoridan chiqadi. Oshkor etilmagan axborot egasi bu ma'lumotlar yuzasidan litsenziya shartnomasi tuzish huquqiga ega. Bunda oshkor etilmagan axborot egasi litsenziyar yani litsenziya berish huquqiga ega shaxs bu shaxsdan muayyan moddiy manfaat berish evaziga bu ma'lumotlardan foydalanish huquqini olayotga shaxs esa litsenziyat deb ataladi. Litsenziyat zimmasiga bu ma'lumotlarni xavfsizligini ya'ni oshkor bo'lib qolmasligini ta'minlash vazifasi yuklatiladi. Litsenziya shartomasi muddatli hisoblanib uni amal qilsih muddati tugagandan so'ng ham oshkor etilmagan axborot moddiy emas g'oyaviy ko'inishga egan bo'lgani va uni miyyadan o'chirib tashlashning imkoniy yo'qligi sababli litseziyatda shartnomaga tugatilgandan so'ng ham uni oshkor etmaslik majburiyati qoladi. UShbu qoida Fuqarolik kodeksining 1097-moddasida aytib o'tilgan.

Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foydalangan, olgan, taqratgan, shaxs axborortni qonuniy egasiga noqonuniy foydalanganligi natijasida yetkazilgan zararni, boy berilgan foydani, agar bo'lsa ma'naviy zarani ham to'lashi shart. Undan tashqari sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborortni egasini rozilgisiz oshkor qilish, undan foydalanish maqsadida xar qanday usulda to'plash O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 191-moddasiga ko'ra jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Xulosa: Hozirgi kunda intellectual mulk obyektlarini himoya qilish ba undan xavfsiz foydalanish imkoniyatini ta'minlash davlatimiz rivojlanishi va hatr jabhada taraqiy etishi kafolatlovchi omildir. Shuning uchun hammani shu jamiyatning bir a'zosi sifatida inteltual mulk huquqi obyektlaridan foydalanish tartibiga rioya etishga chaqirib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
- 2) Fuqarolik huquqi maxsus qism darslik X.Rahmonqulov, I.Zokirov
- 3) Fuqarolik huquqi darslik umumiyligida V.R Topildiyev, R.Dj. Ruziyev
- 4) O'z.Res. "Korxonalar to'g'risidagi" qonuni
- 5) Jinoyat kodeksi